

ZAMONAVIY ILM-FANDA OLIMA AYOLLARNING O'RNI: TIBBIYOT SOHASIDA OLIMA AYOLLARNING ZAMONAVIY ILMGA QO'SHGAN HISSASI

Adhamova Mohlaroy Nodirbek qizi

mohlaroyadhamova29@gmail.com

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari 3-Ingliz tili
filologiyasi fakulteti talabasi Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi zamonaviy tibbiyot rivojida olim ayollarning tutgan o'rni va ularning ilm-fanga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tibbiyot sohasida faoliyat olib borgan ayol olimlarning tarixiy va zamonaviy yutuqlari, ularning sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, ayol olimlarning ilmiy izlanishlari orqali tibbiyotda innovatsion yondashuvlar shakllanayotgani, kasalliklarni aniqlash va davolash usullarining rivojlanishiga qo'shgan hissasi ko'rsatib beriladi. Maqolada ayol olimlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish tibbiyot sohasining barqaror rivoji uchun muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: olim ayollar, tibbiyot sohasi, ilmiy tadqiqotlar, sog'liqni saqlash, innovatsiya

Annotation. This thesis analyses the role of women scientists in the development of modern medicine and their contribution to scientific progress. The study examines both historical and contemporary achievements of female researchers in the medical field, highlighting their impact on improving healthcare systems. Particular attention is given to innovative approaches developed through women scientists' research and their contribution to the advancement of disease diagnosis and treatment methods. The thesis emphasises the importance of supporting and encouraging women scientists to ensure sustainable development in medical science.

Keywords: women scientists, medicine, scientific research, healthcare, innovation

Аннотация. В данной тезисе анализируется роль женщин-учёных в развитии современной медицины и их вклад в науку. В ходе исследования рассматриваются исторические и современные достижения женщин-исследователей в области медицины, а также их значение в совершенствовании системы здравоохранения. Особое внимание уделяется инновационным подходам, сформированным благодаря научным исследованиям женщин-учёных, и их вкладу в развитие методов диагностики и лечения заболеваний. В тезисе обосновывается важность поддержки и поощрения научной деятельности женщин-учёных для устойчивого развития медицинской науки.

Ключевые слова: женщины-учёные, медицина, научные исследования, здравоохранение, инновации

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida jamiyatning barqaror rivoji inson kapitalidan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va innovatsiyalar taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lib, bu jarayonda tibbiyot sohasining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Aholi salomatligini ta'minlash, kasalliklarning oldini olish va davolashda ilmiy yondashuvlarning rivojlanishi tibbiyot sohasida faoliyat olib borayotgan olimlarning samarali izlanishlariga bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda tibbiyot sohasida ayollarning ta'lim olish va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari kengayib, ularning ilmiy-tadqiqot jarayonlaridagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Olima ayollar tibbiyotning turli yo'nalishlarida, jumladan, diagnostika, farmatsiya, biotexnologiya, epidemiologiya va profilaktika sohalarida muhim ilmiy natijalarga erishib kelmoqda. Ularning ilmiy izlanishlari sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy davolash usullarini joriy etish va tibbiy innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tibbiyot sohasida ayollarning ilmiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish masalasi bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Olima ayollarning ilmiy faoliyatdagi o'rni va hissasini o'rganish, ularning tibbiyot taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini tahlil qilish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki tibbiyot fanining barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, mazkur maqolada tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan olim ayollarning ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati va zamonaviy tibbiyot rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda O'zbekistonda tibbiyot sohasida ayollarning ilmiy va kasbiy faoliyati hamda ularning hissasi tobora ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat amaliy tibbiyotda, balki ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar va iqtidorli yoshlar rag'batlantirilishi orqali ham namoyon bo'lmoqda. Davlat darajasida beriladigan **“Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti”** mamlakatimizda yosh ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning iqtidorlarini tan olishning oliy darajadagi e'tirofidir. 2025 yilda ham Prezident qarori bilan 28 nafar iqtidorli qiz **Zulfiya mukofoti bilan taqdirlangan**, ularning qatorida **Buxoro Davlat Tibbiyot Institutining 6-kurs talabasi Bahronova Dilshoda Tohirovna va Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabalari Abdullayeva Saida Ravshan qizi** kabi tibbiyot yo'nalishida faoliyat yuritayotgan yoshlar ham borligi bu sohada ayollar bilim va salohiyatining yuksalib borayotganidan dalolat beradi. Bu mukofot iqtidor, tashabbuskorlik va ilm-fan sohasidagi yutuqlar uchun

taqdim etiladi, shu jumladan sog'liqni saqlash va tibbiyot sohalaridagi izlanishlar ham e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston ilm-fan sohasida ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator **ilmiy forum va tadbirlar** ham o'tkazilmoqda. Xususan, 2025 yil 11 fevral kuni Toshkentda "**O'zbekiston olimlari ayollari forumi**" bo'lib o'tdi, unda respublikaning turli ilmiy va oliy ta'lim muassasalari olimlari ayollari, tibbiyot va boshqa fan yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar ishtirok etdi. Rasmiy statistikaga ko'ra, O'zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan olimlarning taxminan **48% ini ayollar tashkil etadi**, bu esa jamiyatda ayol olimlarning salohiyati va ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bu kabi forumlar va mukofotlar ayol olimlar, tibbiyot xodimlari va talabalarni bir joyga to'plash, ularning ilmiy izlanishlarini rag'batlantirish hamda ilm-fan sohasida gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu orqali yosh ayollar o'zining ilmiy salohiyatini yanada oshirib, tibbiyot faniga innovatsion yondashuvlar, amaliy tavsiyalar va yangi g'oyalarni qo'shish imkoniga ega bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu tezisdagi O'zbekiston sharoitida tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan olimlarning ayollarning o'rni va ahamiyati yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayol olimlar tibbiyot ilm-fanidagi faoliyati orqali jamiyatning sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda va ilmiy salohiyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tezisdagi ayol olimlar duch kelayotgan ijtimoiy va institutsional muammolar, shuningdek, ularning ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatdagi hissasini izchil tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida O'zbekistonda tibbiyot sohasida ayollarning faolligi va ularning ilmiy salohiyati ilmiy tafakkur rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi masalan, **Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, O'zbekiston olimlari ayollari forumi** asoslab berildi. Ushbu amaliy va rasmiy tadbirlar yosh olimlarning ilmiy izlanishlarini rag'batlantiradi va tibbiyot fanida gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tezisdagi keltirilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, olimlarning tibbiyot ilm-fanidagi o'rni nafaqat ijtimoiy masala, balki ilmiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqdir. Umuman olganda, tadqiqotda ko'tarilgan masalalar zamonaviy tibbiyot sohasining rivoji kontekstida dolzarb bo'lib, ayol olimlarning ilmiy faoliyatini baholash va tushunishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *Women in Science*. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
2. UN Women. *Gender Equality and the Empowerment of Women in Science*. New York, 2020.
3. European Commission. *She Figures 2021: Gender in Research and Innovation*. Luxembourg, 2021.

4. Oakley, A. *Sex, Gender and Society*. London: Routledge, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
6. Xolmatova D. *Zamonaviy jamiyatda ayollar va ilm-fan*. Toshkent: Fan, 2019.
7. Zamin.uz. *A group of women were awarded the Zulfiya Prize*. 2025.
8. Talimtelekanali.uz. *O'zbekiston olimlari ayollari forumi bo'lib o'tdi*. 2025.